

METHODS AND MEANS OF STUDENTS' DIGITAL LITERACY DEVELOPMENT

Gulhayo Bokhodirovna Kuzmanova

Senior Lecturer of the "Methodology of Primary Education"

Department Chirchik State Pedagogical University

Hojinur Makhmudjon qizi Atakhonova

BOT 2nd Year Student

Chirchik State Pedagogical University

Gulhayo Temirkul qizi Torayeva

BOT 1st Year Student

Chirchik State Pedagogical University

Abstract:

Currently, the process of globalization and mixing of cultures is taking place all over the world. Teaching students this complex process and developing their digital literacy is one of our important tasks. Also, information technologies are so rapidly entering our daily lives, the influence of social networks on the development of the whole society is growing especially rapidly, which has created opportunities for the movement and change of many information flows of users.

Keywords: network, digital, information, social, technology, student, ability, literacy, teacher, internet, Facebook, Twitter, Myspace, Instagram, informatics, education, modern, education, multimedia, video

МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация:

В настоящее время во всем мире происходит процесс глобализации и смешения культур. Обучение студентов этому сложному процессу и развитие их цифровой грамотности — одна из наших важных задач. Также информационные технологии так стремительно входят в нашу повседневную жизнь, особенно быстро растет влияние социальных сетей на процессы развития всего общества, что создало возможности для движения и изменения многих информационных потоков пользователей.

Ключевые слова: сеть, цифровая, информация, социальная, технология, школьник, способность, грамотность, учитель, интернет, Facebook, Twitter, Myspace, Instagram, информатика, образование, современное, образование, мультимедиа, видео.

O'QUVCHILARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA VOSITALARI

Quzmanova Gulhayo Boxodirovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası katta o'qituvchisi Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ataxonova Hojinur Maxmudjon qizi

BOT 2-kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

To'rayeva Gulhayo Temirqul qizi

BOT 1-kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya:

Hozirgi kunda butun dunyoda globallashuv, madaniyatlar aralashuvi jarayoni kechmoqda. Bu murakkab jarayonda o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish ularni raqamli savodxonligini rivojlantirish muhim vazifalarimizdan biridir. Shuningdek, axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga shu qadar shiddat bilan kirib kelyaptiki, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarning butun jamiyat tarqqiyotidagi jarayonlarga ta'siri tez suratlarda o'sib bormoqda, bu esa foydalanuvchilarning ko'plab axborot oqimlarining harakati va o'zgarishi kabi imkoniyatlarni yaratdi.

Kalit so'zlar: tarmoq, raqamli, axborot, itimoiy, texnologiya, maktab o'quvchi, qobiliyat, savodxonlik, o'qituvchi, internet, Facebook, Twitter, Myspace, Instagram, informatika, tarbiya, zamonaviy, ta'lim, multimedia, vedio


Bugungi kunda internet – texnologiyalarining jadal rivojlanishi onlayn tijoratni yanada qulayroq qiladi. Natijada ko'plab foydalanuvchilar turli xil internet-platformalaridan tovar va xizmatlarni sotib olish, shuningdek, o'zining noyob mahsulotlarini yaratish va targ'ib qilish uchun foydalanishi mumkin. Internetda taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar assortimenti juda katta bo'lib uni ikkita katta guruhga ajratish mumkin.

1. Iste'mol tovar va xizmatlar
2. Raqamli tovar va xizmatlar

Istemol tovar va xizmatlar: ular real dunyoda sotib olinadi va iste'mol qilinadi bunda internet istemol vositasi sifatida ishlaydi: tanlash, baholash, buyurtma berish, to'lash kabi funksiyalarni bajaradi. Internet istemol tovarlari assortimenti odatda onlayn do'konlarda deyarli hamma narsani kundalik tovarlardan (oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim –keshak, mebellar, oyoq-kiyim, maishiy texnika, kitoblar, avtomobillar, turli xil buyumlarni, inshoatlarni) sotib olish mumkin. Natijada internet orqali kerakli mahsulotlar haqida ma'lumot qidirish, sifat va narxlarni taqqoslash, kerakli joyga etkazib berish imkoniyatini beradi hamda kerakli mahsulotlarni sotib olish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.


Raqamli tovar va xizmatlar: internet tarmog'ida sotiladigan tovar va xizmatlarning ushbu guruhi axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan paydo bo'lgan. Aynan shu raqamli tovar va xizmatlar guruhi o'smir yoshidagi o'quvchilarda katta qiziqish o'yg'otadi. Bunda ular social media marketing ya'ni ijtimoiy tarmoqlardan turli ma'lumotlar almashishlari, bloklash xizmatlaridan foydalanadi. Ko'pchilik internet istemolchilari yuklab olinadigan materiallarini nimaligiga ahamiyat berishmaydilar chunki, ularning ko'pchiligi internetda bepul, to'lovlar yo'qligi istemol qilinadigan tovar va xizmatlarning farqi yo'qligini anglatmaydi. Shuningdek, o'quvchilar ko'pchilik internetdan kitoblar, filmlar, multfilmlar turli xil dasturlarni bepul yuklab olish mumkin bo'lgan saytlardan ko'p foydalanadilar. Aslida ushbu saytlar bepul ko'rinadi, chunki ularni taqdim etadigan ko'plab saytlar reklamadan pul ishlashadi. Shu sababli biz internetdan foydalanamiz va iste'molchi sifatida faoliyat olib boramiz.

Bugungi kunda internetda xarid qilish eng qulay, kafolatli, sifatli faoliyatlardan biridir. Bunda katta yirik kompaniyalar, kichik ishlab chiqaruvchilar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va alohida shaxslar ham elektron tijorat bilan shug'ullanadi.



2.2.1 –rasm. Kimlar onlayn savdo qiladi

Internetda tovar va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishning ko'plab usullari mavjud. Mazkur to'lovlarni naqt pul va bank o'tkazmasi orqali to'lash mumkin.



2.2.2 –rasm. Qanday qilib onlayn xarid qilish mumkin.

Internet istemolchilarining xulq atvori - bu shaxs tomonidan muayyan tovar va xizmatlarni sotib olish va ulardan foydalanish jarayonida amalga oshiriladigan harakatlar majmuidir.

So'ngi yillarda onlayn xaridlarda istemolchilarning hatti harakatini quyidagi yetti bosqich asosida tavsiflash mumkin.

1. O'z ehtiyojiga mos tovarni tanlash
2. Kerakli tovar va xizmatlar haqida ma'lumotlarni qidirish
3. Mahsulot yoki xizmatdan foydalanish
4. Xarid qilingan mahsulot va xizmatni istemol qilish
5. Ishlatilgan tovarlarni sotish

Shaxsning ijtimoiy kompetensiyasining bir qismi sifatida istemolchi kompetensiyasi istemolchilarning onlayn muhitdagi hatti-harakatlari jarayonida shakllanadi hamda internet foydalanuvchilarining istemolchi sifatida samarali qarorlar qabul qilishiga tayyorligini ta'minlaydi. Internetdan foydalanuvchilarning iste'molchi sifatidagi kompetensiyasilariga quyidagilar kiradi;

-turli onlayn texnologiyalar yordamida o'z ehtiyojlarini qondirishni bilish imkoniyati (internet orqali tovar va xizmatlarni sotib olish);

-internet resurslaridan foydalanib kerakli tovarlar haqida ma'lumot izlash;

-turli onlayn do'konlardagi tovar va xizmatlarni narxini, iste'mol qilish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish (masalan, tovar va xizmatlarni narxlarini taqqoslash, sifatsiz tovarlarni almashtirish yoki qaytirish, sotuvchining veb saytiga tovar va xizmatlar haqidagi sharhlarni qoldirish);

-tovar va xizmatlarni xarid qilish usullarini tanlash (masalan, bank kartasi, elektron hamyon kabilarda to'lovni amalga oshirish);

-turli tovar va xizmatlarni sotib olishda internet resurslaridan ma'suliyat bilan foydalanish, pul mablag'larini to'g'ri boshqarish va xavfsizlik qoidalariga roiya qilish.

Ko'pgina tadqiqotchilar o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida ularda tavakkal qilishga moyillik deb ta'kidlaydilar, uning namoyon bo'lishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Birinchidan, o'smirlar tajribasizligi va xavf mavjudligini bilmasligi mumkin. Masalan, hayotida birinchi marta onlayn firibgarlikka duch kelgan o'smir uni qanday oqibatlarga olib kelishini bilmaydi. Ikkinchidan, o'smirlar tengdoshlari orasida ma'sulyatsizligi va tajribasizligi orqali bu tuzoqqa tushib qoladi. Masalan, o'smir qiziquvchanligi sabab notanish havolaga ergashishi mumkin. Uchunchidan o'smir o'rtoqlari orasida o'zini kattalarday his qilishi orqali atayin tavakkal qilishi mumkin. Shuning uchun ham ba'zi bir internet do'konlarida 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga sotish taqiqlangan tovarlarni sotib olish xavfli ekanligini bilishi zarurdir.

Axborot oqimining ortishi va inson faoliyatining barcha sohalarida AKTdan foydalanishning kuchayishi munosabati bilan umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishga bo'lgan talabni oshirish orqali o'quvchilarning ushbu fan bo'yicha kompetensiyasini rivojlantirish zarurati paydo bo'ldi.

O'quvchilarning informatika faniga oid kompetentligini rivojlantirishda, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etishni elektron ta'lim resurslari asosda loyihalashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, informatikadan o'quv-bilish faoliyatida foydalanish o'qituvchiga o'quvchilar uchun individual ta'lim traektoriyasini yaratishga imkon beradi va o'quvchilar har xil usullardan foydalangan holda fanga oid kompetentligini

rivojlantirish sharoitida o'rganish va ularning natijalarini baholash uchun individual ta'lim yo'nalishini tanlashlari mumkin.

Elektron ta'lim muhitida informatika fanidan o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish o'ziga xos xususiyati, uning asosida individual ta'lim traektoriyasini yaratish va har bir o'quvchi tomonidan ma'lumot kodlashning individual bilim uslublarini hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishini tanlashdir.

Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda elektron ta'lim resurslarining o'рни alohida qiziqish uyg'otadi, chunki ulardan foydalanish nafaqat moslashuvchan tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotni vizual taqdim etish tufayli o'qitish samaradorligini oshirishi mumkin, shu bilan birga vizual ma'lumotlarni loyihalash, qurish va ishlov berish bilan bog'liq kengiyi faoliyat g'oyasini yaratadi. Amaliy ahamiyati informatika darslarining samaradorligini oshirish imkoniyatiga bog'liq, shuningdek, o'qitishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishi ekanligi, o'quvchilarning informatikani o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bu esa uning kompetentligini rivojlanishiga hissa qo'shadi.

U.N.Taylokov elektron ta'lim muhitini joriy etish birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga bog'liqligini, ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qarash lozimligini ta'kidlagan. Uning fikricha umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining fanlarga oid kompetentligini rivojlantirishda elektron ta'lim muhiti muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [91; 80-81-b.].

I.V.Kuznesovaning fikriga ko'ra, darslarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish istagi ijtimoiy, pedagogik va texnologik sabablarga ko'ra quyidagilar yuzaga keladi [50; 169-b.]:

- ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarini kiritishga bo'lgan talablarni oshiradi;
- pedagogik ta'lim samaradorligini oshirish uchun yangi vositalarni izlash zaruratini oshiradi;
- kompyuter o'quv ma'lumotlarini uzatish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, o'quv motivatsiyasini kuchaytirish va o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish imkonini beradi.

REFERENCES

1. J.M.Nemo. LinkedIn Ricbes: How to use LinkedIn for Business, Sales and Marketing! Jumeirah Bay: CreateSpace Independent Publishing Platform, 2014. 124 p.
2. Gulhayo Bakhodirovna Kuzmanova, Approaches of mathematical and pedagogical scientists in the teaching of textual problems in general secondary schools. Current research journal of pedagogics 2(8): 80-83, August 2021 DOI:
3. Quzmanova G.B (2021) Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matnli masalalarni ta'limiy. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 1154-1159.
4. Gulhayo Bakhodirovna Kuzmanova, Methods of organizing students' extra-curricular activities in "informatics and information technologies" using social networks Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj), Jan. (2023). Scientific Journal Impact Factor. –Б. 284-288.
5. Умарова, З., & Сайлиева, М. М. Қ. (2021). Конфликтология назарияси хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 2(1), 629-633.

6. Sayliyeva, M. M. (2023). Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillari va mazmuni. Mugallim ilmiy jurnali, 1(3), 160-166.
7. Xidoyatova, N. A. (2022). Integrative approach: important element of teaching of foreign language. Mugallim, 1(2), 62-65.
8. Xidoyatova, N. A. (2022). The psychological development of properties volitional qualities of pupils. Mugallim, 1(2), 68-71.
9. Yuldashevna, S. Z., Khatamjanovna, N. Z., Dexkonovna, T. M., & Abdumuminovna, I. M. M. (2022). Development of critical thinking to the environment in primary school students. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
10. Dehqonboyevna, T. M. (2022). Maktabgacha pedagogika. World scientific research journal, 7(1), 6-8.
11. Халилова, Н. И. (2019). Проблема рефлексии в самореализации и нравственном воспитании личности (на примере анализа рассуждений восточных мыслителей). ПРЕДИСЛОВИЕ НАУЧНЫХ РЕДАКТОРОВ, 60.
12. Халилова, Н. И. (2018). Рефлексив технологиялари таълим жараёнига таъбиқ этишининг психологик жиҳатлари. Современное образование (Узбекистан), (7), 17-21.
13. Сейтнийазов, К. М. (2023). Некоторые виды трансформации топонимов. Science and Education, 4(2), 1700-1704.
14. Сейтнийазов, К., Шерипова, Г. (2020). Топонимларнинг классификация турлари. Республикалық Илимий-теориялық онлайн конференция, 1(1), 70-72.
15. Seitniyazov, K. M., & Baltabayev, O. O. (2020). Methods for toponymical research of objects. Fan va jamiyat, 1(1), 28-29.
16. Madraximova, Z., & Toymbayeva, D. (2022). Ekologiya o 'qitish nazariyasi va metodikasining shakllanish manbalari. Science and Innovation, 1(B8), 2409-2411.
17. Nigmatov, Askar, Madrakhimova, Zulfiya, Ishankulova, Komila (2020). Geotourism: Problems and Solutions on the Example of Uzbekistan. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 21(1), 14-21.
18. Арсланова, Г. Д. (2022). Практические методы и педагогические приёмы преподавания предмета «воспитание» в начальных классах. Academic research in educational sciences, 3(12), 421-428.
19. Арсланова, Г. Д., Панкина, М. С. (2023). Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников. Муаллим илмий журнали, 1(3), 409-413.
20. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo'llari. Konferensiya, 1(1), 379-382.
21. Qarshiboyeva, X. K. (2023). TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari. Mugallim ilmiy metodik jurnali, 1(3), 72-77.
22. Mirxalilova, N. A. (2021). PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI VOSITASIDA O'ZBEKISTONDA MATEMATIKA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 160-163.

23. Maxmudova, D. M., & Mirxalilova, N. A. (2021). "PISA" XALQARO DASTURIDA MATEMATIK SAVODXONLIK. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1476-1480.
24. Valentinovich, K. D., Akhralovich, N. R., & Ekaterina, L. (2022). Selection of tomato varieties and hybrids for cultivation in hydroponic greenhouses of Uzbekistan. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 207-214.
25. Gaynutdinov, T. R., Idrisov, A. M., Vagin, K. N., Kurbangaleev, Y. M., Zakirova, G. S., Ishmukhametov, K. T., ... & Smolentsev, S. Y. (2021). Simulation of radiation-thermal illness and a way to its treatment. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal | NVEO, 3541-3549.
26. Зиядуллаев, Д. Ш.; Хаджибеков, С.Н. (2022). ПОЛИМЕР КИМЁСИ ФАНИДАН МОБИЛ ЭЛЕКТРОН КУЛЛАНМА. Тошкент, 1(1), 34.
27. Зиядуллаев, Д. Ш., Джолдасбаева, А. Б., & Байтилеуова, Г. Д. Қ. (2022). Использование искусственного интеллекта для оценки рисков неполучения урожая. Science and Education, 3(6), 445-451.
28. Каландарова, А. В., Калдыбаева, Д. О. (2022). Массовая литература как коммерческое искусство. Advancing in research, practice and education, 9, 142.
29. Каландарова, А. В., Калдыбаева, Д. О. (2022). Развитие и жанровое разнообразие массовой литературы XX-XXI века. Advancing in research, practice and education, 9, 145.